

QURILISH TARMOG‘IDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLAR VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Arifdjanova Zilola Dilshodovna

Toshkent arxitektura qurilish universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida qurilish tarmog‘ida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi hamda rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 2020-2025-yillar davomida qurilish sohasida qabul qilingan davlat dasturlari, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, raqamli boshqaruv, “yashil qurilish” va innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonlari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: qurilish tarmog‘i, institutsional islohotlar, boshqaruv samaradorligi, investitsiyalar, barqaror rivojlanish, raqamli boshqaruv, yashil qurilish, iqtisodiy o‘rinish.

Аннотация

В статье проведён комплексный анализ институциональных реформ, реализуемых в строительной отрасли Республики Узбекистан, а также их социально-экономической эффективности и тенденций развития. В рамках исследования рассмотрены государственные программы и нормативно-правовые акты, принятые в 2020–2025 годах, процессы цифровизации управления, внедрения инновационных и «зелёных» технологий в строительстве.

Ключевые слова: строительная отрасль, институциональные реформы, эффективность управления, инвестиции, устойчивое развитие, цифровое управление, зелёное строительство, экономический рост.

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of institutional reforms implemented in the construction sector of the Republic of Uzbekistan, their socio-economic effectiveness, and development trends. The study examines state programs and regulatory acts adopted during 2020–2025, as well as the processes of digital governance, implementation of innovative and green construction technologies.

Keywords: construction sector, institutional reforms, management efficiency, investments, sustainable development, digital governance, green construction, economic growth.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasini modernizatsiya qilish va bozor mexanizmlariga asoslangan samarali boshqaruv tizimini shakllantirish borasida qator institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbariyatining bevosita tashabbusi bilan qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatga ega yo‘nalish sifatida belgilanib, uning huquqiy, tashkiliy va texnologik asoslarini tubdan takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Jumladan, soʻnggi yillarda qabul qilingan qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar-xususan, 2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi [1] hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yildagi PF-5392-sonli Farmonida [2] belgilangan vazifalar qurilish sohasida boshqaruvni zamonaviylashtirish, loyiha ishlab chiqarish va ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish, sohaga xalqaro standartlarni keng joriy etishni nazarda tutadi.

Qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning eng muhim va strategik tarmoqlaridan biri sifatida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari shuni koʻrsatmoqdaki, aholi sonining oʻsishi, urbanizatsiya jarayonlarining tezlashishi, infratuzilmaviy ehtiyojlarning ortishi va investitsiya muhitining takomillashishi toʻgʻridan-toʻgʻri qurilish tarmogʻining barqaror rivojlanishiga bogʻliq. Shu jihatdan, sohada amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy barqarorlik va aholi turmush darajasini yaxshilashga ham xizmat qilmoqda.

Shu tariqa, qurilish sohasi mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlari, jumladan, barqaror iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy soha infratuzilmasini kengaytirish va “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini koʻrsatadi.

Qurilish tarmogʻida amalga oshirilayotgan islohotlar bir necha ustuvor yoʻnalishlarda namoyon boʻlmoqda. Avvalambor, bu sohada ilgʻor xalqaro tajriba asosida elektron axborot tizimlari orqali loyiha hujjatlarini koʻrib chiqish va tasdiqlash amaliyoti joriy etilmoqda.

Qurilish jarayonida ishtirok etuvchi har bir subyektning (muhandis, loyihachi, texnik nazoratchi va boshqalar) javobgarligini aniq belgilash orqali qurilish sifati ustidan nazorat kuchaytirildi.

Importga qaramlikni kamaytirish maqsadida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qoʻllab-quvvatlash, ular uchun qulay soliq va kredit imtiyozlari yaratilmoqda.

“Yashil binolar” konsepsiyasi doirasida energiya tejankor texnologiyalar joriy etilib, qurilish materiallari va texnologiyalariga nisbatan yangi standartlar ishlab chiqilmoqda.

Qurilish sohasini modernizatsiya qilish va samarali boshqaruv tizimini joriy etish jarayoni avvalo mustahkam huquqiy-meʼyoriy bazaga tayanadi. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda qabul qilingan qator qonun hujjatlari sohaning institutsional asosini shakllantirib, uning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Jumladan, 2018-yilda qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5392-son Farmoni [2] qurilish sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, loyiha va ekspertiza jarayonlarini raqamlashtirish, sohada zamonaviy boshqaruv modellarini shakllantirish vazifalarini belgilab berdi.

Shuningdek, 2021-yilda qabul qilingan “Shaharsozlik kodeksi” (OʻRQ-656) [3] va unga oid qonuniy hujjatlar qurilish sohasida huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirdi, loyihalash va qurilish ishlarida shaffoflik hamda javobgarlik tamoyillarini mustahkamladi.

Qurilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlar asosiy mezon hisoblanadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida tarmoq izchil o'sish tendensiyalarini namoyon etdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish tarmog'ini rivojlantirish, uni boshqarish samaradorligini oshirish hamda institutsional islohotlar asosida barqaror rivojlanishini ta'minlash masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda qurilish sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida talqin qilinib, uning iqtisodiy o'sish, infratuzilmaviy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Boshqaruv samaradorligi va institutsional islohotlar masalalari bo'yicha klassik iqtisodiy nazariyalar P. Druker va D. Nort ishlarida chuqur yoritilgan. Xususan, P. Druker boshqaruv samaradorligini resurslardan maqsadli va natijador foydalanish bilan bog'lab, strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini ahamiyatini asoslab bergan [5]. D. Nort esa institutsional muhitni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qarab, huquqiy va tashkiliy islohotlar samaradorlikka bevosita ta'sir qilishini ta'kidlagan [6].

Qurilish sohasida raqobatbardoshlik va strategik rivojlanish masalalari M.Porter tadqiqotlarida yoritilib, u tarmoqlarning barqaror rivojlanishida raqobat muhitini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish va klaster yondashuvining ustuvorligini asoslab bergan [7]. Shuningdek, R. Kaplan va D. Norton tomonidan ishlab chiqilgan strategik samaradorlikni baholash tizimi (Balanced Scorecard) qurilish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks baholashda muhim metodologik asos sifatida qaraladi [8].

Barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyalari qurilish sohasini modernizatsiya qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. J. Elkington tomonidan ishlab chiqilgan "uch natija" (Triple Bottom Line) modeli iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlikni uyg'un holda ta'minlash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Mazkur yondashuv qurilish sohasida energiya tejamkor texnologiyalar, ekologik standartlar va "yashil binolar" konsepsiyasini joriy etishning nazariy asosini tashkil etadi.

MDH mamlakatlari olimlari tadqiqotlarida qurilish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish masalalari keng yoritilgan. Jumladan, M. Yu. Viktorov va K.V. Kozirev ishlarida qurilish tashkilotlarida loyihaviy boshqaruv, investitsion yechimlar va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish masalalari tahlil qilingan [9]. Ularning tadqiqotlarida raqamlashtirish va BIM texnologiyalari qurilish jarayonlarining sifatini va shaffofligini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda qurilish tarmog'ini rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni, investitsiya muhitini yaxshilash va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, N. Nurimbetov, N. Xodjayeva ishlarida milliy iqtisodiyotda

investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari va ularning tarmoqlar rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan [10].

Shu bilan birga, milliy tadqiqotlarda qurilish sohasida raqamli boshqaruv, BIM, IoT va energiya tejamkor texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash masalalari yetarlicha yoritilmaganligini qayd etish mumkin. Aksariyat ishlar sohaning alohida iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish bilan cheklanib, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik natijalarini integratsiyalashgan yondashuv asosida baholash masalasi kam o'rganilgan.

Shu nuqtai nazardan mazkur tadqiqot qurilish tarmog'ida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, davlat dasturlari va innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy samaradorligini kompleks tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mavzuga oid mavjud ilmiy tadqiqotlarni to'ldirish va tizimlashtirishga xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli va kompleks yondashuv, institutsional iqtisodiyot nazariyasi hamda barqaror rivojlanish konsepsiyalari tashkil etadi. Tadqiqotda tahlil va sintez, solishtirma tahlil va iqtisodiy-statistik usullar qo'llanilib, rasmiy statistik ma'lumotlar asosida qurilish sohasining asosiy iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlari dinamikasi baholandi. Shuningdek, me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili va integral baholash yondashuvi orqali amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi hamda qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanish tendensiyalari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islohotlarning amaldagi natijalariga nazar tashlasak, 2020-2024-yillar davomida qurilish sohasi ichki yalpi mahsulotidagi ulushi izchil oshgani kuzatilmoqda. Xususan, 2023-yil yakunlariga ko'ra, mamlakat bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlari umumiy hajmi 132 trln so'mdan oshgan bo'lib, bu 2020-yildagi ko'rsatkichdan 20 foizga ko'pdir, bundan tashqari, xususiy sektorning sohadagi faolligi kuchayib, umumiy qurilish ishlarining 55 foizdan ortig'i aynan xususiy tashabbuslar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

1-jadval.


O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari¹

Yillar	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	Uy-joy qurilishi (ming kv.m)	Ijtimoiy infratuzilma obyektlari (maktab, shifoxona, bog'cha – dona)	Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm)	Qurilish sohasida investitsiyalar (trln. so'm)	Qurilish sohasida bandlar soni (ming kishi)	Qurilishda energiya tejamkor texnologiyalar ulushi (%)
2020	19 559	13 800	1 250	10 500	89,8	1 420	6,0
2021	24 162	14 200	1 320	11 700	101,4	1 460	7,5

¹ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yillar	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	Uy-joy qurilishi (ming kv.m)	Ijtimoiy infratuzilma obyektlari (maktab, shifoxona, bog‘cha – dona)	Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so‘m)	Qurilish sohasida investitsiyalar (trln. so‘m)	Qurilish sohasida bandlar soni (ming kishi)	Qurilishda energiya tejamkor texnologiyalar ulushi (%)
2022	27 602	15 000	1 380	12 900	113,9	1 500	8,3
2023	42 842	15 800	1 420	14 200	201,7	1 570	9,2
2024	50 285	14 844	1 500	15 500	333,8	1 630	10,5

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, 2020-2024-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida qurilish sohasi sezilarli o‘sish tendensiyasiga ega bo‘ldi. Xususan, qurilish ishlar hajmi 2020-yilda 19,6 trln.so‘mdan 2024-yilga kelib 50,3 trln.so‘mgacha o‘sdii va bu ko‘rsatkich 2,6 barobarga oshganini anglatadi. Bunday dinamika qurilish sohasi milliy iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega tarmoq sifatida shakllanganini ko‘rsatadi. Bu jarayon, avvalo, davlat investitsiya siyosatining kengayishi, infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish va aholining turar joyga bo‘lgan talabining ortishi bilan izohlanadi.



1-rasm. Qurilish sohasida iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik tendensiyalari tahlili (2020-2024)¹

Uy-joy qurilish ko‘rsatkichlari ham yillar kesimida ma’lum barqarorlikka ega bo‘lib, o‘rtacha 14-15 mln kv.m. atrofida shakllangan. Eng yuqori ko‘rsatkich 2023-yilda qayd etilgan (15.8 mln kv.m), bu esa urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari uy-joy qurilishining ustuvor yo‘nalishga aylantirganini ko‘rsatadi. Biroq 2024-yilda uy-joy maydoni 14,8 mln kv.m.ga pasayganini bozorda talab va taklif muvozanati, qurilish materiallari narxlari hamda ipoteka siyosati bilan bog‘liq ayrim cheklovlarni ko‘rsatish mumkin.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Ijtimoiy infratuzilma obyektlari soni tahlil davrida muntazam o‘shishga erishdi: 2020-yilda 1250 ta obyekt foydalanishga topshirilgan bo‘lsa, 2024 yilda ularning soni 1500 taga yetdi. Bu holat davlat tomonidan ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholi turmush sifatiga yo‘naltirilgan islohotlarning amaliy natijasini ko‘rsatadi. Mazkur o‘shish ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash va inson kapitali rivojini qo‘llab-quvvatlashda muhim omil sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqish hajmi 2020-yilda 10,5 trln.so‘mdan 2024-yilda 15,5 trln. so‘mgacha o‘sib, qariyb 47,6 foizga oshgan. Bu ko‘rsatkich tarmoqda import o‘rnini bosish siyosati va mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali ichki bozordagi talabni qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini ifoda etadi. Shu bilan birga, eksport salohiyatining oshishi milliy sanoatning global integratsiya jarayonlariga kirishini ta‘minlamoqda.

Qurilish sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar tahlil davrida keskin oshgan. 2020-yilda 89,9 trln. so‘m bo‘lgan ko‘rsatkich 2024-yilda 333,8 trln so‘mga yetgan, ya‘ni qariyb 3,7 barobar o‘sgan. Bunday holat mamlakatda investitsiya muhitining yaxshilangani, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish siyosatining samaradorligi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining amaldagi qo‘llanilishi bilan izohlanishi mumkin. Investitsiyalarning oshishi qurilish tarmog‘ida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va loyihalar sifatini oshirishga turtki berdi.

Qurilish sohasida bandlik ham ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, 2020-yilda 1,42 mln kishidan 2024-yilda 1,63 mln kishigacha o‘sdi, bu esa 15 foizlik o‘shishni ko‘rsatadi. Bandlikning ortishi mehnat bozorida qurilish sohasining yetakchi tarmoqlardan biriga aylanganini va aholi uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratilganini ko‘rsatadi. Bu holat ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, qurilishda energiya tejamkor texnologiyalar ulushi tahlil davrida 6 foizdan 10,5 foizgacha o‘sib, 75 foiz o‘shish qayd etildi. Bu jarayon mamlakatda “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amalga oshirish va resurslardan tejamli foydalanishga qaratilgan islohotlarning samarasini ko‘rsatadi. Energiya tejamkor texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikka erishishga ham xizmat qilmoqda.

2-jadval.

Qurilish sohasida iqtisodiy rivojlanish va barqarorlik tendensiyalari tahlili (2020-2025)

Yil	Qurilish ishlari fizik hajm indeksi	YAIMda qurilish ulushi (%)	Bandlik indeksi	ROI indeksi	“Yashil” texnologiyalar indeksi
2020	100	7,2	100	100	100
2021	106	7,3	102	108	115
2022	112	7,6	104	118	130
2023	118	7,8	107	130	145
2024	124	8,0	110	140	160

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar mobaynida qurilish sohasi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan izchil rivojlanishga erishgani kuzatilmoqda.

Avvalo, qurilish ishlari fizik hajm indeksi tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda 100 foizlik bazaviy holatdan boshlab, keyingi yillarda izchil o'sish qayd etilgan va 2024 yilga kelib 124 foizga yetgan. Bu ko'rsatkich sohada yillik o'rtacha 5-6 foizlik barqaror o'sish sur'atlari mavjudligini tasdiqlaydi.

Iqtisodiy jihatdan muhim ko'rsatkichlardan biri- YAIMda qurilish ulushi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 7,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 8,0 foizga yetgan. Ya'ni, yalpi ichki mahsulotda qurilish sohasining salmog'i 1,3 foizga oshgan. Bu holat tarmoqning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik ahamiyatini yanada kuchaytirayotganidan dalolat beradi.

Bandlik indeksi tahliliga ko'ra, 2020-yilda 100 foizlik ko'rsatkich 2024 yilga kelib 110 foizga oshgan. Bu esa sohada yangi ish o'rinlari yaratilishi, ishchi kuchiga talab ortishi va aholi bandligining ko'payishi bilan bog'liq ijtimoiy samaralarni anglatadi.

2-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-2024-yillar davomida qurilish sohasi nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik yo'nalishda ham salmoqli natijalarga erishdi. Qurilish ishlari hajmining o'sishi, YAIMdagi ulushning ko'payishi va ROI indeksidagi ijobiy dinamika tarmoqning investitsiyaviy jozibadorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga "yashil" texnologiyalarning jadal joriy qilinishi barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shuningdek, qurilish jarayonlarida BIM, IoT va "yashil qurilish" kabi zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, shaffoflikni oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini bermiqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlamoqda.

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ida amalga oshirilgan institutsional islohotlar va davlat dasturlari sohaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minladi hamda uni milliy iqtisodiyotning strategik drayverlaridan biriga aylantirdi. Qurilish ishlari hajmining izchil o'sishi, investitsiyalar miqdorining sezilarli ortishi, YAIMdagi ulushning ko'payishi, bandlik darajasining oshishi hamda energiya tejamkor texnologiyalar ulushining kengayishi islohotlarning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv, BIM va "yashil qurilish" texnologiyalarining joriy etilishi qurilish jarayonida shaffoflikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatini yaratmoqda.

Shu bilan birga, qurilish sohasida olib borilayotgan institutsional islohotlar, investitsiya siyosati va innovatsion texnologiyalarni joriy etish mamlakat iqtisodiyotida ushbu tarmoqning strategik ahamiyatini kuchaytirmoqda. 2020-2024-yillar davomida qurilish ishlari hajmining 2,6 barobarga o'sishi, investitsiyalar hajmining qariyb 3,7 barobar ortishi, bandlik ko'rsatkichlari va energiya tejamkor

texnologiyalar ulushining oshishi sohaga qaratilayotgan e'tibor va chora-tadbirlarning samaradorligini yaqqol tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi: birinchi, qurilish tarmog'ida institutsional boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, xususan, loyiha-ekspertiza jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda integratsiyalashgan axborot tizimlarini joriy etish maqsadga muvofiq, ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali infratuzilmaviy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga xususiy kapitalni faol jalb etish zarur, uchinchidan, "yashil qurilish" standartlari va energiya tejankor texnologiyalarni joriy etishni iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar) orqali qo'llab-quvvatlash tavsiya etiladi, to'rtinchidan, qurilish sohasida kadrlar salohiyatini oshirish, xususan, raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv usullari bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qurilish tarmog'ini isloh qilish va uni zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy infratuzilmani kengaytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali qurilish sohasining investitsion jozibadorligini yanada oshirish va uning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-sonli "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni <https://lex.uz/docs/-3842005>
3. O'zbekiston Respublikasining. 22-fevral 2021-yil №O'RQ-676 O'zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida Qonuni <https://lex.uz/docs/-5304609>
4. Druker P. Management challenges for the 21st century. New York: HarperCollins, 2007. 320 b.
5. Nort D. Institutions, institutional change and economic performance Cambridge: Cambridge University Press, 1990. 153 b.
6. Porter M. Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance. New York: Free Press, 2008. 512 b.
7. Kaplan R., Norton D.. The balanced scorecard: Translating strategy into action. Boston: Harvard Bussines School Press, 1996. 406 b.
8. Elkington J. Cannibals with forks: The triple bottom line of 21st century business. Oxford: Capstone Publishing, 1997. 232 b.
9. Viktorov M.Yu., Kozirev K.V. Foreign experience in construction organization management. Sankt-Peterburg: СІІБГАСУ, 2019. 178 b.

10. Nurimbetov R., Ходжайева N. Перспективы и предпосылки развития зеленой экономики в Республике Узбекистан. Общество и инновации. № 6. 45-51 б.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:	Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri:	Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri:	Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah:	Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar:	Sadikov Shoxrux Shuxratovich Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**